MAQOMNING ZAMONAVIY TALQINI VA SHOU BIZNESDA MAQOM “MODERNIZATSIYA”SI MUAMMOSI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i04.053

Zufarov Abror Maxamad-Sodiqovich
abrorz@mail.ru
Yu.Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek maqom san’atining shou-biznes muhitida yuzaga kelayotgan muammolari, jumladan, noto‘g‘ri talqin qilinishi va asossiz “modernizatsiya”si masalalari tahlil qilinadi. Maqolada ustoz-shogird an’anasi va Yunus Rajabiyning maqomni saqlash va tiklashdagi beqiyos xizmati yoritilgan. Shuningdek, bugungi kunda maqom institutlari faoliyatidagi kamchiliklar, ijodiy va ilmiy muhitdagi muammolar, shou-biznesda maqom ijrochiligi bilan bog‘liq qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi va ularni hal etish bo‘yicha 10 bosqichli ilmiy-amaliy takliflar keltiriladi. Maqola maqomning an’anaviy qadriyatlarini saqlagan holda rivojlanishi va zamonaviy ijro amaliyotiga moslashuvi uchun tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: maqom san’ati, noto‘g‘ri talqin, modernizatsiya, shou-biznes, ustoz-shogird an’anasi, Yunus Rajabiy, maqom instituti, ijodiy muhit, ilmiy tadqiqot, ta’lim sifati

MODERN INTERPRETATION OF MAQAM AND THE PROBLEM OF “MODERNIZATION” OF MAQAM IN SHOW BUSINESS

Zufarov Abror Makhamad-Sodikovich
abrorz@mail.ru
National Institute of Uzbek Music named after Yu.Rajabi

Abstract: This article analyzes the challenges of Uzbek maqom art in the modern show-business context, particularly its misinterpretation and unjustified “modernization.” It highlights the role of the master-apprentice tradition and the outstanding contribution of Yunus Rajabiy in preserving and restoring maqom. The study also examines the shortcomings of contemporary maqom institutes, issues in the creative and academic environment, and performance-related difficulties in the show-business sector, offering ten step-by-step scientific and practical recommendations to address these problems. The article provides guidelines for developing maqom while preserving its traditional values and adapting it to contemporary stage practices.

(cc) BY

Keywords: maqom art, misinterpretation, modernization, show-business, master-apprentice tradition, Yunus Rajabi, maqom institute, creative environment, scientific research, education quality

So‘nggi yillarda shou-biznes va ommaviy madaniyat ta’siri ostida o‘zbek an’anaviy musiqa san’ati, xususan maqom ijrochiligi turli shakllarda “zamonaviylashtirish” jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu holat bir tomondan yosh avlod e’tiborini milliy musiqaga jalb etish istagi bilan izohlanishi mumkin bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan maqomning asl badiiy-estetik mohiyatini buzish xavfini yuzaga keltirmoqda.

Maqom san’ati va uning bugungi shou-biznes muhitida yuzaga kelayotgan noto‘g‘ri talqini hamda asossiz “modernizatsiya” jarayonlarini tahlil etishda, O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohani davlat darajasida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’at, jumladan milliy maqom san’atini asrash, rivojlantirish va ilmiy asosda targ‘ib etishga oid qator qarorlari mazkur masalaning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu ma’noda, 2017-yilda qabul qilingan “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-3391) [2] alohida ahamiyatga ega. Ushbu hujjatda maqom san’ati xalqimizning noyob tarixiy-madaniy merosi sifatida e’tirof etilib, uni saqlash, ilmiy o‘rganish, nashr etish va ijro amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha muhim tashkiliy va metodik vazifalar belgilab berilgan. Qarorda maqomning badiiy-estetik qiymatini asrash, uning an’anaviy ijro mezonlariga tayangan holda rivojlanishini ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi. Bu esa shou-biznes sharoitida maqomni sahnaga moslashtirish jarayonida an’anaviy yondashuv va ilmiy asoslarni saqlab qolish muhimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarorida ham milliy musiqa san’ati, jumladan maqom ijrochiligini qo‘llab-quvvatlash, ijodkorlar faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratish hamda yosh avlodni an’anaviy san’at ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [3]. Mazkur hujjatlar maqom san’atining yuzaki talqin qilinishi va asossiz modernizatsiya qilinishining oldini olishda muhim huquqiy va g‘oyaviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

“Xususan, davlat rahbarining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatini shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab quvvatlash qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan.” [4, 332]

TAHLIL: Maqom - bu faqat musiqiy asar emas, balki murakkab lad-parda tizimi, uslub, ijro maktabi va falsafiy-estetik qarashlar majmuasidir. Shashmaqom, Xorazm

(cc) BY

maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari tarixan qat’iy an’analar asosida shakllangan. Shu bois maqomni talqin qilishda erkinlik emas, balki mas’uliyat va bilim ustuvor bo‘lishi zarur.

Bugungi shou-biznes amaliyotida “modernizatsiya” ko‘pincha ilmiy asosga ega bo‘lmagan tarzda talqin qilinmoqda. Elektron cholg‘ular qo‘shilishi, garmonik tuzilmaning o‘zgartirilishi, pop yoki estrada ritmlarining tatbiq etilishi maqomning tabiiy ohang-parda tizimini buzadi. Natijada ijro tashqi jihatdan “zamonaviy” bo‘lib ko‘rinsa-da, ichki mazmunini yo‘qotadi. Maqom turkumlarining qisqartirilishi, ayrim bo‘limlarning tushirib qoldirilishi yoki tartibining o‘zgartirilishi ham keng tarqalgan muammolardan biridir. Shou format talablariga moslashish natijasida maqom yaxlitligi parchalanib, u oddiy sahna qo‘shig‘i darajasiga tushib qolmoqda.

Maqomni modern talqinda ijro etayotgan ayrim san’atkorlar an’anaviy maktab, ustoz-shogird tizimi va nazariy bilimlardan yetarli xabardor emas[5,3]. Bu esa ijrochining shaxsiy didini ilmiy asosdan ustun qo‘yishiga olib keladi. Natijada “individual talqin” nomi ostida maqomning asosiy qonuniyatlari inkor etiladi.

Zamonaviy loyihalarda maqom ijrosiga musiqashunos va maqomshunoslarning bahosi kam jalb etilmoqda. Ilmiy ekspertizasiz amalga oshirilayotgan “yangilanishlar” maqom merosining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Maqom san’atining bugungi kungacha yetib kelishi, avvalo, asrlar davomida shakllanib kelgan ustoz-shogird an’anasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu an’ana maqomni faqat musiqiy asar sifatida emas, balki murakkab ijro madaniyati, ohang-parda tizimi, uslubiy me’yorlar va ma’naviy qadriyatlar majmui sifatida avloddan-avlodga uzatib kelgan. Maqomlar asosan og‘zaki-professional yo‘l bilan, bevosita ustozning jonli ijrosi va shogirdning kuzatuv, taqlid hamda amaliy mashg‘ulotlari orqali o‘rgatilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida faoliyat yuritgan Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniy, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Ashurali hofiz, kabi buyuk ustozlar aynan shu an’anaviy tizim asosida maqomlarni mukammal saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar. Ular maqom asarlarini o‘z tabiiy muhitida, ya’ni saroy, majlis va ustoz-shogird mashg‘ulotlari jarayonida ijro etib, uning ichki qonuniyatlarini buzmasdan yetkazganlar. Mazkur ustozlarning faoliyati tufayli maqom san’ati shakliy va mazmuniy jihatdan barqarorligini saqlab qoldi hamda sun’iy o‘zgarishlardan himoyalandi [6].

Ustoz-shogird an’anasi maqom ijrochiligida individual talqinga ma’lum darajada yo‘l qo‘ygan bo‘lsa-da, bu erkinlik hech qachon asosiy lad-parda tizimi, ritmik tuzilma va ijro uslubini inkor etish darajasiga yetmagan. Shu bois an’anaviy maktab vakillari tomonidan ijro etilgan maqom namunalari bugungi kunda ham etalon sifatida qabul qilinadi.

(cc) BY

XX asrga kelib, ijtimoiy-madaniy sharoitlarning o‘zgarishi maqom san’ati taqdirini jiddiy xavf ostiga qo‘ydi. Ana shunday murakkab davrda Yunus Rajabiy maqom san’atini saqlab qolish, qayta tiklash va ilmiy asosda rivojlantirish yo‘lida beqiyos xizmat qildi [7]. U ustozlardan og‘zaki an’ana orqali o‘zlashtirilgan maqomlarni tizimli ravishda to‘pladi, ularni qayta tikladi va nota yozuviga tushirdi.

Yunus Rajabiyning maqomlarni notaga olish borasidagi faoliyati ularning vaqt va ijrochi xotirasiga bog‘liq holda yo‘qolib ketishining oldini oldi. Bu jarayon maqomlarni professional musiqa ta’limi tizimiga joriy etish, o‘quv qo‘llanmalar va ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam manba yaratish imkonini berdi. Shu bilan birga, u maqomlarni sahnaviy ijro amaliyotiga olib chiqishda ham ehtiyotkorlik bilan yondashib, an’anaviy ijro me’yorlarini saqlashga intildi.

Yunus Rajabiyning ilmiy, ijrochilik va pedagogik faoliyati natijasida maqom san’ati og‘zaki an’anaga tayanib qolgan tor doiradan chiqib, keng ilmiy va ta’limiy muhitga kirib bordi. Bu esa maqomning noto‘g‘ri talqini va asossiz “modernizatsiya”siga qarshi mustahkam ilmiy poydevor yaratdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Bugungi kunda O‘zbekistonda Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati institutining tashkil etilishi milliy musiqa madaniyatining rivojlanishi uchun muhim qadam sifatida baholanadi. Institutning ochilishi, bir tomondan, maqomni professional tizimda o‘rganish va ilmiy asosda rivojlantirish imkoniyatini yaratdi, yosh avlodni an’anaviy musiqiy tafakkur bilan tanishtirishda ijobiy natija bermoqda. Shu bilan birga, davlat nigohi va madaniyat sohasidagi nufuzi ortishi institut faoliyatining ommaviy e’tiborini kuchaytirdi. Bu esa o‘z navbatida maqom san’atining jamoatchilik va shou-biznes doirasida tan olinishini rag‘batlantirmoqda.

Biroq, institut faoliyatida ayrim sohalarda hali sezilarli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ta’lim sifatining barqaror emasligi, ilmiy metodika va tizimning yetarlicha shakllanmaganligi institutning akademik darajasini cheklamoqda. Ayrim ustozlar o‘z tajribasini uzluksiz yetkazish o‘rniga, ko‘pincha qat’iy metodik yondashuv va tashkiliy me’yorlardan chetga chiqishi kuzatiladi. Natijada, ijodiy va badiiy muhit sustlashib, o‘quv jarayonida qog‘ozbozlik, formalistik ishlarga urg‘u berilishi holatlari uchrab turadi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot va maqomshunoslik ishlari institutning akademik faoliyatida hali yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat yosh ijrochilarga chuqur nazariy asos bilan birga ijodiy erkinlikni shakllantirish imkonini cheklamoqda. Shu bilan birga, institutning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va tan olinishining ortishi, agar u bilan birga sifatli ilmiy va ijodiy muhit yaratilmasa, faqat tashqi ko‘rinishda muvaffaqiyatga erishish xavfini tug‘diradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda maqom san’ati shou-biznes doirasida keng ijro etilishi bilan birga bir qator murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ulardan

(cc) BY

eng dolzarblari quyidagilardir: Maqomning noto‘g‘ri talqini va asossiz “modernizatsiya” - estrada ritmlari, elektron cholg‘ular va sahnaviy effektlar tufayli maqomning tabiiy lad-parda tizimi buzilmoqda. Ijrochilik me’yorlarining zaifligi - ko‘plab ijrochilar an’anaviy uslub va ohang tizimini yetarlicha bilmasligi sababli, maqomning badiiy yaxlitligi saqlanmayapti. Ilmiy-metodik asosning yetishmasligi - shou-biznesda maqom talqini ko‘pincha ilmiy tahlilsiz amalga oshirilmoqda. Ijodiy muhitning sustligi - ta’lim va amaliy mashg‘ulotlarda ijodiy erkinlik o‘rniga formalistik ishlarga urg‘u berilmoqda. Maqom instituti faoliyatidagi pedagogik kamchiliklar - ustozlarning pedagogik tayyorgarligi va metodik salohiyati yetarli emas. Ijrochilar va yosh avlod o‘rtasida tajriba uzatilmasligi - ustoz-shogird an’anasi sustlashib, bilim va ko‘nikmalar to‘g‘ri uzatilmayapti. Shou-biznesning tijoriy talablari - maqomni tijoriylashtirish jarayoni asarning badiiy qadriyatini zaiflashtirmoqda.Ijtimoiy e’tibor va auditoriya madaniyati yetishmasligi - maqomning jamoatchilik tomonidan noto‘g‘ri tushunilishi va mazmuniy qashshoqlashuvi. Tadqiqot va maqomshunoslik faoliyatining sustligi - yangi asarlar va ijrochilik tajribalari yetarlicha ilmiy qayd etilmaydi. Davlat siyosati va shou-biznes integratsiyasi yetishmasligi - maqomning nufuzini oshirish va ilmiy asos bilan targ‘ib etish ishlari yetarlicha uyg‘unlashmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish uchun quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan:

✓ Maqom talqinining standartlarini ishlab chiqish - an’anaviy lad-parda tizimi, ritmik va uslubiy qoidalar asosida ijro mezonlarini belgilash.

✓ Ijrochilik malakasini oshirish dasturlarini joriy etish - professional treninglar, master-klasslar va ustoz-shogird an’anasini zamonaviy shakllarda tiklash.

✓ Ilmiy-metodik markazlarni tashkil etish - maqomshunoslik va musiqa pedagogikasi bo‘yicha tadqiqot va metodik materiallar bazasini yaratish.

✓ Ijodiy laboratoriyalar ochish - yosh ijrochilar va bastakorlar uchun maqom bo‘yicha amaliy ijodiy mashg‘ulotlar, eksperiment va sahnalashtirish.

✓ Shou-biznes bilan ilmiy integratsiya - sahna ijrosi va tijoriy talablarda maqomning badiiy qadriyatlarini saqlash mexanizmlarini ishlab chiqish.

✓ Auditoriya madaniyatini oshirish dasturlari - konsert, teleko‘rsatuv va onlayn platformalarda maqomning tarixiy va estetik ahamiyatini targ‘ib qilish.

✓ Ilmiy tadqiqot va maqolalar sonini oshirish - maqomshunoslik konferensiyalari, ilmiy nashrlar va loyiha ishlarini rag‘batlantirish.

✓ Davlat qo‘llab-quvvatlashi va institutlar faoliyatini uyg‘unlashtirish - davlat dasturlari, grantlar va shou-biznes faoliyati orqali maqomni rivojlantirish mexanizmlarini birlashtirish.

Ushbu bosqichma-bosqich takliflar amalga oshirilsa, maqom san’ati:

- an’anaviy qadriyatlarini saqlagan holda rivojlanadi,

(cc) BY

- shou-biznes doirasida sifatli ijro va ta’lim mexanizmlari yaratiladi,
- ijodiy va ilmiy muhit mustahkamlanadi,

Xulosa qilib aytganda, maqom institutining tashkil etilishi milliy san’atimizni rivojlantirishda katta imkoniyatlarni ochsa-da, uning samarali faoliyati uchun ustozlar pedagogik salohiyati, ilmiy metodika va ijodiy muhitning barqarorligi ustuvor masala bo‘lib qolmoqda. Institutdagi mavjud salohiyatni samarali ishlatish, akademik va ijodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirish orqali maqom ta’limi nafaqat davlat nigohi ostida nufuzli bo‘lishi, balki milliy san’atimizning haqiqiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh.Mirziyoyev “Qarorlar Konsepsiyasi” inernet sahifasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror (PQ-3391). - Toshkent, 2017-yil 17-noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaror. - Toshkent, 2022-yil.

4. Mohinabonu A. Prezidentimizning madaniyat va san’at sohasiga e’tibori //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g ‘oyalar. - 2025. - T. 1. - №. 1. - C. 331-333.

5. Zufarov A.M. “Maqomlar, pardalar: “ushshoq” misolida” //Art and Design: Social Science” (E-ISSN: 2181-2918 P-ISSN: 2181-290x)

6. Zufarov A.M. “O‘zbek milliy musiqasi rivojida sharq allomalarining qo‘shgan hissasi” // "Oriental Art and Culture №5, 2023. B.244-250 (17.00.02; №303/6 qarori)

7. Yu. Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. Toshkent, 1978. - 164 b.

8. Махаров Н.Т. “Новые горизонты в хоровой музыке: интеграция арабской и узбекской музыкальных традиций.” Journal of National Culture, 1(2), (2025).

9. Хандамян В.С. “Цифровые инновации и культурное наследие: узбекские традиционные музыкальные инструменты”. Inter education & global study, no. 1 (2025).

10. Makharov, N. T. “Creative Union of Composers Amer Jaafar and Nodirbek Makharov.” European Journal of Arts, no. 4 (2024).

11. Rasulov D. A. “Jahon va o‘zbek kompozitorlari ijodida myuzikl janri”. Inter education & global study, no. 8 (2024): 431-438

12. Н. Махаров, Д. Раджабова, Д. Абдурашидова, and В. С. Хандамян, “Кросс-культурная синергия в музыке: пути сотрудничества между узбекскими и кувейтскими композиторами”, Вестник Санкт-Петербургского университета, pp. 38-45, 2025.

(cc) BY

13. Abdurashidova D.A. Faxriddin Sodiqov merosi va Malika Ziyayeva pedagogik yondashuvi: dutor ijrochiligi taraqqiyotidagi o‘rni. Oriental Art and Culture, 6 (4), 17-21, 2025.

14. Абдурашидова Д. Аруз и музыка: как ритмическая система дутара помогает освоению ритмики стиха. Вестник Санкт-Петербургского университета, Том 15, № 4, стр. 18-28, 2025.

15. Махаров Н. Значение композиторской школы Аваза Мансурова для современного музыкального образования. Вестник Санкт-Петербургского университета, Том 15, № 4, стр. 1-9, 2025.

16. Mirzajonova N. The creativity of composers of Uzbekistan in piano ensemble pedagogy. Вестник Санкт-Петербургского университета, Том 15, № 4, стр. 10-17, 2025.

(cc) BY